

TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA
MADANIYATI TARBIYASI

B. Mustafoyev

Buxoro davlat universiteti “Musika ijrochiligi va madaniyat” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda musiqa madaniyati ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati, umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, musiqa madaniyati o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, zamonaviy darslarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, metod, usul va vositalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa pedagogikasi, Davlat ta'lim standarti, musiqa merosi, zamonaviy musiqa darslari, ta'lim texnologiyalari, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi faoliyati, pedagogik amaliyot, xalq musiqasi, o'qituvchining kompetentlik darajasi.

Mamlakatimizda mustakillik yillarida barcha sohalar qatori musiqa ta'lim – tarbiyasi tizimida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, navkiron avlodimizning ma'naviy kamol topishida musika san'ati boshqa san'at turlariga karaganda ko'prok va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Zero, musiqa ta'lim-tarbiyasi ma'naviy kamolotni ta'minlovchi omillardan biri bo'lib, inson tuyg'ulariga ta'sir etish bilan kishini axloqiy–estetik jihatdan tarbiyalaydi. Shu bois, jamiyatda musikiy ta'lim–tarbiya masalalariga munosabat mohiyatan o'zgardi. O'zbek musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Prezidentning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-112-sonli Qarorida bolalarning musiqiy bilim hamda ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatilishi nazarda tutildi.

Yosh avlodning musiqiy tarbiyasida muhim vosita sifatida milliy musiqa asarlaridan unumli foydalanish masalalariga esa e'tibor yanada kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PK-3391-sonli Qarori qabul qilinib, ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodimizni

yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi ta'kidlab o'tildi. Shu bois, milliy maqom san'ati namoyandalari, targ'ibotchilari oldiga "Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" vazifasi qo'yildi [1].

Bu esa ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi hamda pedagogik faoliyatni maqsadli amalga oshirishga undayli. Endilikda asosiy maqsad-o'quvchi faqat egallangan bilim va ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz [2].

Musiq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish, yoshlar orasida musiqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish maqsadida qator davlat hujjatlari qabul qilindi, darsliklar nashr ettirildi, dasturlar tayyorlanib, o'quv-metodik adabiyotlar chop ettirildi, mutaxassis bakalavrlarni tayyorlash va o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash tizimida muayyan natijalarga erishildi.

2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori bilan Musiq madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti tasdiqlandi [3].

Davlat ta'lim standartlarining joriy etilganligi musiq madaniyati fani va o'qituvchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yukladi: "Musika ta'lim-tarbiyasining maqsadi, yosh avlodni milliy musika merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiq namunalarni angelaydigan, tushunadigan va qadrlaydigan madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashdan iborat" ligi alohida qayd etildi [4].

Zamonaviy musiq madaniyati fani o'qituvchisidan tashkil etayotgan darsining mazmuni va o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqqan holda, mashg'ulot jarayonida ilg'or usullar asosida innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish talab etiladi. Bu talabni amalga oshirishda o'qituvchi kasbiy mahoratining roli katta. O'qituvchi bilimli, ilg'or, iste'dodli ijodkor, izlanuvchan, tashabbuskor, pedagogik-metodik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Musiq madaniyati fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari musiqiy savodxonlik, jamoa bo'lib kuylash, musiq tinglash va tahlil qilish kompetensiyalari asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Ta'lim texnologiyalarini musiqiy o'quv jarayoniga keng tatbiq etish o'quvchilar faolligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida mazmun

topishida o'qituvchi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilimga hamda tajribaga ega bo'lishi, darsni zamonaviy talablar asosida qiziqarli usullarda olib borishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni mustakil ijodiy fikrlashga, musiqa asarlariga munosib munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi va yangi musiqiy ma'lumotlarni o'zlashtirishda ijodiy yondasha oladi.

Xullas, umumiy ta'lim bo'g'inida musiqa ta'lim- tarbiyasi tizimini isloh qilishga qaratilgan Davlat hujjatlari metodologik asos sifatida kelgusida barkamol avlod madaniyati asoslarini tarbiyalashni takomillashtirishda, ularning musiqa san'ati sohasida chuqur va puxta bilim olishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu mas'uliyatli jarayonda tizimdagi barcha pedagog-xodimlar, amaliyotchi metodist-o'qituvchilar va musiqa san'ati, pedagogikasi sohasi mutaxassislari ijodiy hamkorlikda faoliyat yuritmoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

2. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 139-145.

3. Ибодов У. Р. ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА КАК ОРУДИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА ЧЕЛОВЕКА // Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020). – 2020. – С. 336.

4. Каюмов Ибрагим Файзуллаевич ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ МУЗЫКИ // Academy. 2020. №11 (62). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-istoki-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

5. Каюмов Иброхим Файзуллоевич, Жураева Мафтуна МЕСТО МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ 5-7 КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ // Проблемы педагогики. 2020. №3 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-muzyki-v-vospitanii-duhovno-nravstvennyh-kachestv-uchaschihsya-5-7-klassev-obsheobrazovatelnyh-shkol> (дата обращения: 26.10.2023).

6. Fayzullaevich Q. I. Culture and art values and aesthetics in formation factors. – 2021.

7. Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-74.

8. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

9. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

10. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339

11. Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.

12. Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

13. Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.

14. Boltayev B. N. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782

14. Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.

15. Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.

16. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

18. Azimovna, Samiyeva Mehriniso. "THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS." *Academia Science Repository* 4.04 (2023): 1067-1071.

19. Samiyeva Mehriniso Azimovna, & G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich. (2023). THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS. Web of Scientist: Interneti

20. Мустафоев Б. И. ОСОБЕННОСТИ УРОКОВ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1. – С. 46-48. onal Scientific Research Journal, 4(04), 1067–1071

21. Мустафаев.Б.. МУЗЫКАЛЬНО–ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023 - Т. 34. – №. 34 .journal.buxdu.uz <https://buxdu.uz> Page 1 Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022 361

22. Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

23. Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607

24. Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

25. Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ХАЛҚ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИ ТАЪСИРЧАН ВОСИТА СИФАТИДА //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – С. 117-122.

VOLUME-1, ISSUE-4

26. Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 136-144.

27. Равшан Р. Р. ТЕАТР ТОМОШАЛАРИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 145-151.

28. Urinov S. K., Nematullayeva S. CULTURAL CENTERS ARE A PLACE OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 100-106.

29. Mo'Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 57-62.

30. Xolmo'minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT MARKAZLARIDA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 102-107.

31. Ravshanovich H. H. O'QUVCHI YOSHLARDA IJRO MALAKALARINI O 'STIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK // " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

32. Ravshanovich H. H., Hakimovich X. J. ESTETIK TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 73-74.

33. Ravshanovich H. H. MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 11-14.

34. Абдуллаев К. Ф., Умурова М. Ё. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОКА ПЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 66-69.

35. Umurova M. Y. Educational Significance of Children's Folklore Songs //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 148-152.

36. Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 99-103.

37. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

38. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

39. Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

40. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),

41. Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuiy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

42. KO‘rinov S., Sadullayeva S. MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 26. – С. 97-101.

43. Orinov, Sh K., and H. Abdusalomova. "TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 766-770.

44. Orinov S. K. et al. UNDER THE ADMINISTRATION OF THE FIELD OF CULTURE AND ARTS FOREIGN MODELS (US EXAMPLE) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 214-221.

45. O‘rinov S. K., Nematullayeva S. BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-61.